

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA  
AYOLARNING ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA VILOYATI MISOLIDA)**

Maxkamova Ra'no Aloviddin qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> [ranomaxkamova082312@gmail.com](mailto:ranomaxkamova082312@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 06.12.2024*

*Revised: 07.12.2024*

*Accepted: 08.12.2024*

*Tarixning eng mudhish sahifalaridan biri bo'lgan Ikkinchi jahon urushi yillari o'zining ayanchli voqealari va oqibatlari bilan insoniyat jamiyati xotirasidan hech qachon o'chmaydigan davrlardan biri ekanligi shubhasizdir.*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Bu urush millionlab begunoh insonlar, yoshu-qarining bevaqt o'limiga, cheksiz vayronagarchiliklar va uqubatlarga sabab bo'lganligi ko'plari asarlarda qayd etiladi, xotiralarda yodga olinadi.*

**KIRISH.** Tarixning eng mudhish sahifalaridan biri bo'lgan Ikkinchi jahon urushi yillari o'zining ayanchli voqealari va oqibatlari bilan insoniyat jamiyati xotirasidan hech qachon o'chmaydigan davrlardan biri ekanligi shubhasizdir. Bu urush millionlab begunoh insonlar, yoshu-qarining bevaqt o'limiga, cheksiz vayronagarchiliklar va uqubatlarga sabab bo'lganligi ko'plari asarlarda qayd etiladi, xotiralarda yodga olinadi. Shunga qaramay, vaqt o'tgani sari uning og'riqlaridan xalos bo'lish qiyinlashib boraveradi. Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbek ayollariga ham oson bo'lmadi frontga ketgan ota, aka-uka, erlari o'rniga oila boqish hamda front uchun uchun ham mehnat qilishga to'g'ri keldi. Ayollar barcha sohaga kirib bordilar. Shu qatorda qishloq xo'jaligida ham asosiy ishchi kuchi sifatida ayollar qatnashdi.

1941-yil 13-marta “O‘zbekistonda ipakchilikni yanada rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Shu qarorga ko‘ra O‘zbekiston pillachilari yaqin 6-7 yil Ichida pilla yeg‘ishni 20 ming tonnage yetkazish, har bir quti pilla urug‘idan 50 kilogrammdan pilla olishga erishish ko‘zda tutilgan edi.

Respublikada ipakchilikni yuksaltirish avvalo yetarli ipakchi mutaxassislar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq edi. Shuning uchun O‘zK(b)P markaziy Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti 1941-yil avgustida respublikada ipakchi kadrlar tayyorlash haqida qaror qabul qildi. Bu qarorga ko‘ra, ipakchilik bo‘yicha 121 rayon agronomalari, 685 agrotexniklar, 3400 kolxoz brigadirlari tayyorlash nazarda tutildi. Shu maqsadda 1941-yilda sentabr oyida Toshkent qishloq xo‘jaligi institutida, Andijon ipakchilik texnikumi, Urganch qishloq xo‘jaligi o‘rta maktabi qoshida ipakchilik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan maxsus kurslar ochildi.

Kommunistik partiya va Sovet hukumai O‘zbekiston pillakorlarining mehnat zafarlarini yuksak baholadi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1945-yil 1-oktabrda qabul qilingan qaroriga ko‘ra Respublikaning 210 XOTIN-QIZlari SSSR orden va medallari bilan mukofotlandi. Staxanovchi pillakorlardan Qunduzoy Aminova Oxunboboyev rayonidagi “Leningrad” kolxozi zveno boshlig‘i, Saodat Jumaniyozova To‘rtko‘l rayoni “Inqilob” kolxozi zveno boshlig‘i va boshqalar Lenin ordeni bilan mukofotlandi.

Izboskan rayonisagi Hidoyatxon Xolmatova boshliq “Qizil Oktuyabr” kolxozida mo‘l g‘alla hosili yetush tirildi. Bu kolxoz a‘zolari har bir gektardan 35 sentinerdan don olishga muvaffaq bo‘lishdi. Oxunboboyev nomli kolxozning taniqli staxanovchisi To‘xtaxon Hamroyeva boshliq xotin-qizlar brigadasi 5 kunda 10 gektardan bug‘doy o‘rish topshirig‘ini 3 kunda bajardi.

Toshkent oblasti lavlagikorlari davlat plan topshiriqlarini bajarish uchun boshlangan kurashga katta hissa qo‘shdi. Orjonikidze rayoniga qarashli “Oktiyabr” kolxozning Inoy Mirzayeva boshliq zvenosi har gektardan 320, Kalinin rayon Lenin nomli kolxozdan Guloyim Odilova boshliq brigade lavlagikorlari 296 sentiner lavlagi olishdi

Qizil armiya uchun eng zarur bo‘lgan qand lavlagi yetishtirish uchun boshlangan kurashda katta yutuqlarga erishgan xotin-qizlardan ko‘plab misollar keltirish mumkin. 1945-yil 10-fevralxa Respublika lavlagikorlarining birinchi kengashi ochildi. Bu kengashda O‘zbekistonda qand lavlagi yetishtirishda erishilgan yutuq va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar atroflicha muhokama qilindi. Lavlagikorlarining Respublika kengashi ishtirokchilari O‘zbekistondagi barcha lavlagi ekiladigan kolxozlarining kolxozchilari, agronomlari, mexanizatorlariga qarata murojaat qabul qilindi. Murojaatda lavlagi hosildorligini o‘rta

hisobda 200 sentinergayetkazish, mamlakatga frontga iloji boricha ko'plab shakar yetkazib berishga da'vat qilingan edi. SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yiln10-fevralida "O'zSSR kolxozlarida lavlagichilikni rivojlantirish tartiblari to'g'risida" qabul qilingan qarori respublikamizda lavlagikorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1945-yil respublikaning 436 ixtisoslashtirilgan kolxozlarida 39,9 ming gektar qand lavlagi ekildi. Lavlagiga ishlov berish kerak bo'lgan qishloq xo'jalik texnikalari, traktorlar ajratildi., 16 ming tonna mineral o'g'itlar solindi. Buning natijasida ko'pgina kolxozlarda unumli hosil olindi.

Jumladan Toshkent oblast lavlagikorlari gektaridan 255 sentinerdan hosil ko'tarishdi. Ko'plab lavlagikor xotin-qizlar o'zlarining samarali mehnati tufayli mo'l hosil yetishtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Toshkent oblastining mashhur lavlagikori Mehriniso Abdullayeva har gektaridan 550 sentinerdan qand lavlagi oldi. Gorskiy rayonidagi "Leninizm" kolxozining zveno boshlig'I Munisaxon Yo'ldosheva gektaridan 590, "Pravda"kolxozining zveno boshlig'I Melixon Halimboyeva 552 sentinerdan hosil oldi<sup>11</sup>.

Respublika chorvadorlarining urushining eng og'ir damlarida ko'rsatgan g'ayrat-shijoatlari behuda ketmadi. O'zbekiston kolxozlari 1943-yilda davlatga 1940-yilga nisbatan 6 732 kilogarmm ortiq g'osht topshirdi. Chorva mahsulotlarini ko'paytirish va qoramollani parvarish qilishda qishloq xotin-qizlari aktiv qatnashdi. Toshkent oblastida ilg'or sut sog'uvchilar soni 1421kishiga yetdi.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston xotin-qizlari qisqhloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham faol mehnat qilshidi. Jumladan, respublikamizda tamakichilik, bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilikdan yuqori hosil olishda ayollarimiz sabot va matobat bilan mehnat qildilar. Masalan Toshkent rayonidagi "Qizil dehqon" kolxozining a'zosi Bashar Azizova boshliq uzumchilik berigadasi 1943-yilda 25 tonna kishmish tayyorlab frontga jo'natdi. O'zbekiston qishloq xotin-qizlari faqat paxta"Fronti" da mehnat jasratlari ko'rsatib qolmay, balki qishloq xo'jaliogining barcha tarmoqlarida ham qahramonlarcha mehnat qildilar.

1941-yilning boshida yozgi-kuzgi qizg'in dala ishkarining olib borilishi bilan bir vaqtda, qishloq mehanizatorlarini tayyorlash ishlari avj olib ketdi. Chunki frontga ketganlar hisobiga mehanizatorlarining kamayib ketishi, yangi o'zlashtirish, ekin maydonlarini kengaytirish va 1942-yil va undan keying yillar uchun belgilangan qishloq xo'ja;lik ishlab

---

<sup>11</sup> MDA O'z fond-90, ro'yhat .8 ish 6455, varaq 1 60.



chiqarish planlarini ortig'I bilan bajarish mexanizator kadrlarga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Shu maqsadda respublikaning Shahar, rayonlarida mexanizatorlar qisqa muddatli kurs va maktablari ochildi. Masalan O'zbekiston SSR Yer ishlari Xalq komissarligi qoshida ochilgan ikki oylik kurslarda 1941-yil 13 972 kishi shug'ullandi, shundan, 12 478 kishi-xotin-qizlar edi. Xotin-qizlardan mexanizator kadrlar tayyorlashda Toshkent, Namangan, Samarqand Buxoro viloyat partiya, sovet xo'jalik organlari katta ish olib borishdi.

1941-1943-yillarda respublikamizda 43320 traktorhilar tayyorlangan bo'lsa, shulardan 15 mingi xotin-qizlar edi. Urush yillarida hammasi bo'lib 23 mingdan ziyod ayollar traktorchilik kasbini muvaffaqiyatli egalladi.

Mexanizatorlik kasbini bitirib cbiqaan yuzlab, minglab xotin-qizlar Respublika paxta dalalarida jonbozlik ko'rsatib mehnat qilishdi. Jumaladan, Toshkent viloyati Orjonikidze rayoni MTS ga qarashli ilg'or traktorhildan Umri Isayeva, Latofat Bo'riyeva, Shahodat Sultonov ava boshqa paxta oralarini sifatli kultivatsiya qilishda kundalik norma ni 3-4 barobar ortig'I bilan bajarishdi

Gitlerchi bosqinchilarni Sovet Ittifoqiga qarshi boshlangan huju,idan ko'p o'tmay SSSRda frontga yordam berish, mamlakat mudofaa qudratini oshirish, harakatidagi armiyani oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash uchun ommaviy vatanparvarlik harakati avj olib ketdi. Bu vatanparvarlik harakatidagi respublikaning barcha aholisi – ishchilar, dehqonlar va ziyolilar aktiv ishtirok etdi. Frontga yordam berish uchun boshlangan umumxalq harakatida O'zbekistonlik xotin-qizlari ham faollik ko'rsatishdi.

Respublikamizning fabrika va zavodlari, kolxoz, sovxoz, ilmiy, ijodiy tashkilot kollektivlari tomonidan markaziy matbuot organlariga yuborilgan xatlarda Sovet davlatiga, Armiyaga, frontga va mamlakat mudofaa qudratini osjirishga tayyor ekanliklarining yakdillik bilan izhor qilishdi. O'zbekiston SSRning oblast, rayon va kolxozlarida bo'lib o'tgan ko'p minglik mitinglarda kolxozchi dehqonlar, xotin-qizlar, mamlakat mudofaa qudratini oshirish, bosqinchilarga beriladugan zarbani kuchaytirish, jonajon armiyani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, Fashistlar ustidan bo'ladigan g'alabani yaqinlashtirish maqsadida mudofaa fondini tashkil qilishni zo'r mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatladilar.

1941-yil 6-avgustda Toshkent oblast Stalin nomli kolzda bo'lib o'tgan katta mitingda so'zga chiqqan ilg'or kolxozchi M.Olimova shunday dedi. "Fashist bosqinchilari hech qachon sovet xalqini qullikka sola olmaydi. Biz to'liq g'alabaga erishgunimizcha urishamiz. Dushmanni yanchib tashlash uchun hech narsani ayamaymiz."

Ulug' vatan urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlari mamlakat mudofaa fondiga 22 374ming so'mlik buyum va 55 kilogrammdan ortiq qimmatbaho metall topshirdi. Urush

yillarida Respublika mehnatkashlari mudofaa fondiga jami bo'lib 649,9 million so'm naqd pul topshirishdi. O'zbekiston qishloq mehnatkashlari mudofaa fondiga jami bo'lib 649,9 million so'm naqd pul topshirdi. O'zbekiston qishloq mehnatkashlari mudofaa fondiga naqd pul beribgina qolmay, balki g'alla, quruq meva, go'sht, jun, tirik vazindagi chorva mollari, sabzavot mahsulotlari topshirishda ham jonbozlik ko'rsatishdi<sup>12</sup>.

1941-yining oxiri 1942-yilning boshlarida Respublika kolxozchilari mudofaa fondiga 2389 s g'alla, 1808 s go'sht, 1495 s yem-hashak, 325 s quruq meva, 430 s ho'l meva, 20 000 kg jun topshirdilar.

Kolxozchi dehqonlar zarbdor ayollar barcha qiyinchiliklarga bardosh berib mudofaa fondiga atab qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, ularni parvarish qilish, yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmasdan yegh'ishtirib oloishda jon kuyarlik qildilar. 1943- yilning o'zida O'zbekiston kolxozlarida 2359 gektar yerga bug'doy, 1162 ga arpa, 605 ga suli, 108 ga makkajo'xori, 117 ga sholi, 33 ga jo'huri, 111 ga dukkakli ekinlar, 87 ga paxta 46 ga kunjut, 31 ga sabzavot ekinlari ekildi.

O'zbekiston SSR mehnatkashlarining vatanparvarlik harakatlari turli formlarda namoyon bo'ldi. Respublika qishloq xotin-qizlarining vatanparvarlik xarakatining muhim formalaridan biri bu— davlat zayyomlartiga ixtiyoriy yozilish bo'ldi. O'z da davlat xarbiy zayyomlariga yozilish uyushqoqlik bilan o'tdi. Davlat zayyomlariga ixtiyoriy ravishda ommaviy suratda yozilish sovet xalqining, qishloq xo'jalik mehnatkashlarining yuksak ongliligi, siyosiy aktivligini o'sganligi, Vatan himoyasi uchun jonini fido qilishga tayyor turganligini namoyish qildi. Ayniqsa, xotin-qizlar urush yillarida turli jabhalarda ko'ksini qalqon qilib mehnat qilgani, ona sifatida farzandlarini bag'roiga olib tarbiya qilgani, jangchi bo'lib frontda dushmanni yer tishlatgani, sanoat korxonalai, zavod, dalalarda erkaklar kasbini egallagani, sovet jamiyatida, sotsiolistik ijtimoiy tuzum davrida ularning cheksiz qobiliyatiga, imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rdatdi.

Respublikada "O'zbekiston traktorchisi" "O'zbekiston kolxozchisi" "Sovet O'zbekistoni" degan tank kolonnalari uchun mablag' yeg'ish ishi avj olib ketdi. Bu harakatda O'zbekiston Qishloq xotin-qizlari aktiv ishtirok etishdi. Jnangovar mashinalar ishlab chiqarish uchun mablag' yeg'ishda Toshkent viloyatining "Polyarnaya Zvezda" kollektiv xo'jaligining a'zolari tank va xarbiy samalyotlar qurish uchun 1 million 361 ming so'm topshirdi. 1942-yil dekabr oyida O'zbekiston kolxozchi dehqonlari va kolxozchi

---

<sup>12</sup> MA O'z f. 1619, ro'yhat 10 ish l688 l varaq 19

ayollari tank va jangovar samoliyotlar ishlab chiqarish uchun 260 million so'm mablag' berishdi<sup>13</sup>.

O'zbekiston qishloq xotin-qiz vatanparvarlik harakatini rivojlantirishda yangidan yangi tashabbus bilan maydionga chiqishdi. Masalan, 1944-yil dekabr oyida Yangi yo'l rayonidagi "Sharq Yulduzi" kolxozining ilg'or terimchisi Ziynat Akromova O'zbekiston SSR ning 20 yillik lyubileyini "O'zbekiston SSR ning 20 yilligi" nomli tank kolonnalari, samoliyot ekskadriyalari tuzish bilan nishonlanishini taklif etdi. Uning o'zi shaxsiy jamg'armasidan 5 ming so'm topshirdi. Ilg'or zveno boshlig'I Abdurazzoqova ham bu fondga 5 ming so'm ajratdi<sup>14</sup>.

SSSR da frontga yordam berish uchun boshlangan ommaviy vatanparvarlik harakati sovet jangchilarining ma'naviy ruhiyini ko'tarib yubordi. Ularning yangidan yangi qahramonliklarga ilhomlantirdi., g'aklabaga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

Ulug' vatan urushi yillarida avj olgan sovet xalqining ommaviy vatanparvarlik harakatining yorqin namunalaridan biri – bu sovet Armiyasiga issiq kiyim- bosh yig'ish uchun boshlanagan harakatdir. O'zbekistondada bu harakatning tashabbuskorlaridan Yangi yo'l rayondagi "Sharq yulduzi" kollektiv xo'jaliginig kolxozchi ayollari edi. Ular Respublikamizning barcha xotin-qizlariga murojaat wilib, sovet jabgchilariga issiq kiyimlar yig'ishni tashkil qilishga chaqirdilar.

"Sharq yulduzi" qishloq artelining kolxozchi ayollari bu murojaati respublikaning turli rayon va shaharlarida yig'ilgan ommaviy mitinglar, kolxozchilarining majlislarida qizg'in ma'qullandi. Shu chaqiriq asosida O'zbekistonning barcha oblast va rayonlarida Qizil Armiya jangchilariga issiq kiyim to'plash keng quloch yozdi.

Armiya uchun issiq kiyim yeg'ish ishi katta davlat ahamiyatiga ega edi. Chunki bu Kommunistik psrtiyaning tashkilotchilik faoliyati natijasida front bilan front ortining buzilmas birligining hayotiyligi va sovet xalqining sotiulizm va lenincha partiya ishiga, marksizm-leninizm hayotbaxsh g'oyalariga sodiqligini barilla ko'rsatdi. Kolxozchi ayollarning ijtimoiy siyosiy grajdanlik va rahbarlik rolining ortishi Kommunistik partiya va Sovet hukumati gitlerchi bosqinchilarga qarshi frontda jang qilayotganlarning oilasi, ularning bolalalri, xususan urush tufayli ota-onasidan ayirilgan va mamlakat ichkarisiga evakuatsiya qilingan bolalarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatdi.

---

<sup>13</sup> Ўзбекиская ССР в годы Великой отечественной войны. Ташкент 1966. С.88-89

<sup>14</sup> СНК УзССР за 1944 ., л. 18. Правда востока, 1941 ., 7 августа.

---

---



SSR Oliy Soveti Prezidumining 1941-yil 26-iyunda qabul qilingan qaroriga ko'ra harbiy xizmatchilarning oilalariga moddiy yordam ko'rsatildi (shu juyiga isbot tariqasida gazetadagi xabarlardan keltirish m,umkin). Shuningdek, 1943-yil yanvarda KPSS Markaziy Komiteti jangchilar, harbiy xizmatchilar oilasining moddiy -manaviy ehtiyojlarini qondirish haqida maxsus qaror- qabul qildi.

Partiya va hukumatning bu g'amxo'rlikidan ruhlangan O'zbekiston xotin-qizlari jangchilar, harbiy xizmatda bo'lganlarning oilasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ularga yaqindan moddiy yordam ko'rsatishda faol ishtirok etishdi. Respublikaning zavod va favrikalarida muassasalarida, kolxoz va sovxo'zlarda jangchilarning oilalariga turli ko'rinishda moddiy yordam ko'rsatildi. Frontga ketganlarning bolalariga bog'chalarga, yashilarga joylashtirildi, ularga bepul ovqat tashkil qilindi. Shuni isboti kerak.

1941-yil oktabr oyida Toshkent qishloq rayonidagi Lenin nomli kolxoz a'zolari O'zbekistonda birinchi bo'lib frontdagi jangchilar oilasiga ixtiyoriy ravishda yordam berish tashabbusi bilan chiqdi. Shu rayon partiya komitetining sekretari nazira Jalilovanning tashabbusi bilan kolxozchilar harbiy xizmatchilarning 100 dan ortiq oila uylarini remont qilish, ularga 850 sarjin o'tin g'amlash, 40 tonna g'alla va sbzavot mahsulotlaridan iborat oziq-ovqat fondi tayyorlash, jangchilarning bolalariga poyafzal tikishga qaror qilishdi. Lenin nomli kolxoz a'zolarining bu tashabbusi respublikaning barcha qishloq xotin-qizlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Frontga ketgan oilalarga g'amxo'rlik qilishda

Kitob albomdan Urush yillarida g'alla asosan Smarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida yetishtirildi hamda g'allachilikda bug'doy va arpa yetishtirish yetakchi o'rinni egalladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy Arxivining 1619 fondi
2. Правда востока, 1941 7-avgust soni
3. Ўзбекиская ССР в годы Великой отечественной войны. Ташкент 1966
4. R. H. Aminova, M. O. Oxunova, H. Sh. Inoyatov, O'zbekiston SSR tarixi: 4 tomlik. T. 4. Sotsializm qurishni tugallash davri va mmunizmga o'tish (1938 - 1965 y.)/O'zSSR Fanlar akademiyasi, Tarix va Arxeologiya Instituti.82-84 b.
5. Ибрагимов А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г. 10 с.

6. R. H. Aminova, M. O. Oxunova, H. Sh. Inoyatov, O'zbekiston SSR tarixi: 4 tomlik. T. 4. Sotsializm qurishni tugallash davri va mmunizmga o'tish (1938 - 1965 y.)/O'zSSR Fanlar akademiyasi, Tarix va Arxeologiya Instituti.88 b

7. Ибрагимова А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г.15 с.

